

## JARGONLARNING ILMIIY-NAZARIY TADQIQI MASALALARI

**Rahimova Zebiniso Shomansur qizi**

*TerDU tayanch doktoranti*

*raximovaz@tersu.uz*

**Annotatsiya:** *Maqolada sotsiolingvistikaning asosiy birligi bo'lgan jargonlarning dunyo va o'zbek tilshunosligida o'rganilishi va tadqiqi masalasiga to'xtalinilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar sinchiklab o'rganilib, ilmiy xulosalar chiqarilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ijtimoiy to'da, ijtimoiy dialekt, jeriganza, girigaza, sun'iy, shartli so'z va iboralar*

Bugungi tilshunoslik ijtimoiylashgan nutq muammolariga, uning xususiyatlarini o'rganishga e'tiborni kuchaytirmoqda, chunki so'zlashuv nutqiga xoslangan birliklar muloqot jarayonida faol qo'llanilmoqda va ularni tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalariga aylanmoqda. Bu birliklar qatoriga jargonlar ham kiradi va zamonaviy muloqotda turli ijtimoiy guruhlar, to'dalar tomonidan keng qo'llaniladigan lug'aviy birliklarga aylanib bormoqda. Shunga ko'ra, tilshunosliklar, xususan, xorijiy lingvistlar tomonidan boshqa til birliklari singari jargonlar ham muhim o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda.

Jargon atamasi dunyo tilshunosligida quyidagi ma'nolardan kelib chiqqan deb tushuniladi:

- jargon yahudiy tilining eskirgan nomi;
- jargon – qimmatbaho tosh, olmos porlashi bilan sariq siron;
- jargon ijtimoiy dialektdir.

Biz tadqiqotimizda jargonning ijtimoiy dialekt ma'nosidan kelib chiqib mulohazalar yuritamiz.

“Jargon” so'zi eski fransuz tilidagi “jargone” so'zidan olingan. Turli tillarda bu atama turli nomlar ifodalani b kelingan. Xususan, eski italyan tilida “Gergone”, ingliz tilida “slang” atamasi ishlatiladi (hozirda bu atamadan italyan tilida ham keng foydalanilmoqda). Ispan tilida XVI asrda vujudga kelgan “Jeriganza” so'zidan olingan “jerga” qisqartmasi jargon so'zi o'rnida ishlatilgan bo'lsa, Portugal tilida “girigaza” so'zi ayni shu ma'noni anglatadi.

Rus tilshunosligida jargon haqidagi dastlabki manbalar V.Dal, O.S.Axmanovalarning lingvistik lug'atlarida keltirilgan. Shundan so'ng bir qator tilshunoslar jargon va uning tahlili bilan shug'ullana boshlashgan.



Jargon atamasi rus tiliga fransuz tilidan kirib kelgan. Ijtimoiy lingvistik lug'atlar undan faol foydalanilishini ko'rsatadi. Og'zaki nutqdagi jargonlar so'zlovchini "begona" guruhga qarshi "o'z" ijtimoiy guruhiga mansubligini aniqlash uchun mo'ljallangan.

S.I.Ojegov jargonlarga shartlanganlik xususiyatiga ega maxsus nutq deb qaraydi.

Rus tilshunos olimlari L.P.Timofeyev va N.V.Vengrovlar: "Biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos did va talablarini ifodalovchi sun'iy, shartli so'z va iboralar yig'indisi jargonlardir", – deb ta'rif beradi.

Barcha til birliklari singari jargonlarda ham shartlanganlik xususiyati mavjud. Jargon ijtimoiy guruhlar doirasidagina qo'llanishga xoslanganlik, ularning maqsadini ro'yobga chiqaruvchi leksik birlik ekanligi bilan shartlanganlik xususiyatini namoyon etadi.

Jargon atamasi XVII asrda fransuzcha "harigoter" (yomonlik, yomonlik qilish) so'zidan kelib chiqqan va dastlab jamiyatning quyi darajasi – tilanchilar, o'g'rilar, lo'lilar tili sifatida ishlatilgan. Dastlab uning qo'llanish darajasi juda tor bo'lib, lingvistik qatlamda bo'lganidan keyin turli mutaxassislar tomonidan "maxsus ifoda" sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Ijtimoiy jargon (dialekt) odatda ongli yoshda orttirilgan va ba'zi bir ijtimoiy korporatsiyaga qo'shilish bilan bog'liq bo'lgan nutq normasi sifatida tushuniladi, unga ko'ra, tug'ilishdan boshlab (professional jargon, o'g'rilar nutqi) tegishli bo'lishi mumkin emas, bunday me'yordan foydalanish o'zini ushbu jamiyatning a'zosi sifatida tushunishni o'z ichiga oladi va jamiyatning o'zi tegishli nutq xatti-harakatlari huquqini yashirincha tartibga soladi. Jargonni o'zlashtirish har doim ko'proq yoki kamroq sun'iy xarakterga ega bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy guruhni jamiyatning qolgan qismidan ajratib qo'yish va unga qarshi turishga ongli intilish bilan bog'liq.

Jargonlar sun'iy yaratiladi degan qarashlar mavhumdir. Chunki jargon jonli nutq sharoitida tug'iladi va yashaydi. Uni sun'iy lashtirish yoki qolipga solish jargonning "o'lim" iga sabab bo'ladi. Tilshunoslikda jargonlar haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, fikr bildirgan olimlar ko'proq jargonlarning adabiy tilga munosabati nuqtayi nazaridan yondoshganliklarini kuzatish mumkin.

Umumiy jargonning xalq tilidan farqi uning so'z boyligi va frazeologiyasidadir. Jargon argoning sinonimidir, uning argodan farqi shundaki, jargon salbiy (haqorat, yoqtirmaslik) ma'nosida qo'llaniladi.

Jargon (fransuzcha jargon) – kichik ijtimoiy guruh tomonidan qo'llaniladi, milliy tilning mustaqil bo'lmagan alohida tarmog'i.



Biz o'rgangan va tahlil qilgan turk, qozoq, ozarbayjon tillaridagi chegaralangan leksik birliklar haqidagi ma'lumotlarda argo va jargon tushunchalarining izohlashda turli chalkashliklar mavjudligi ham kuzatildi.

O'zbek tilshunosligida chegaralangan leksik birlik bo'lgan jargon lug'aviy-semantik birlik sifatida deyarli o'rganilmagan. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda tilshunos olimlarning jargonga qisqa ta'rifi, muayyan sohalarda qo'llaniluvchi jargon so'zlar haqida ma'lumotlar va o'xshash ilmiy izohlari keltirilgan. Quyidagi ma'lumotlar bilan tanishish asnosida jargon atamasiga aniqlik kiritib boramiz.

Jargonga oid leksika, asosan, ijtimoiy va professional guruhlar doirasida paydo bo'ladi, rivojlanadi va o'ladi. Biroq ba'zi jargon so'zlar qo'llanish doirasini kengaytirib umummilliy til doirasida ham faol ishlatilish hollari kuzatiladi. Bu haqida professor Sh.Maxmaraimova o'zining "Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya)" nomli darsligida quyidagicha mulohaza yuritadi: "Garchi jargonlarga muvaqqat, o'tkinchi tabiat xos bo'lsa-da, ulardan ayrimlari davr o'tib umummilliy so'zlashuvda muqim o'rin topishi mumkin: shpargalka, brat, nishtyak, tanka, g'isht va b.q."

Jargonlarning ishlatilishidan ko'zlangan asosiy maqsad o'zaro muloqot jarayonida so'zlovchining tinglovchidan ustun ekanligini ko'rsatishdir. Ba'zi sotsial guruh a'zolari o'zlarining muloqot nutqi jarayonida jargon birliklardan faol foydalanadi, o'z foydalanuvchilari uchun maxsus ma'no anglatuvchi bunday birliklarning ma'nosini shu guruhga aloqasi bo'lmagan kishi tushunmaydi, asosan, o'z ma'nosida qabul qiladi. Natijada, nutq egasi va tinglovchi o'rtasida ma'lum ma'noda farq yuzaga keladi. Jargonlarning lingvistik vazifasi ham ayni shu nuqtada o'zini namoyon etadi.

M.Iminov, T.Nu'monov, D.Boboxonovlarning "O'zbek tili uslubiyati masalalari" darsligida jargonlar haqida: "Jargonlar (fransuzcha jargon) aslida "yuqori tabaqa" kishilari nutqiga xos bo'lib, tor doirada qo'llanadigan "sinfiy dialektlar", ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir", - degan fikr bildiriladi.

Yuqorida tilshunos olimlar jargonlarga uslub nuqtayi nazaridan yondashgan. Jargonlar qo'llanish doirasi chegaralangan leksik birliklar sirasiga kirishi yodga olingan, "sinfiy dialekt" atamasi ostida nomlangan. Biroq dialektga qiyoslash qay darajada o'zini oqlaydi? Bilamizki, dialektal so'zlar ijtimoiy guruhlar uchun emas, ma'lum hudud uchungina xos so'zlardir. Bizningcha, sinfiy dialekt tushunchasi hozirgi tilshunoslikda ijtimoiy chegaralangan leksikaning maxsus turi bo'lgan jargonni ifodalay olamaydi.

N.A.Quldashev "Ekolingvistika: O'zbek tilida til va nutq sofligining lingvokulturologik tadqiqi" nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy



dajasini olish uchun yozgan ishida jargon - ma'lum soha vakillari uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar ekanligini ta'kidlab o'tadi.

O'rganish obyekti aynan jargonlar doirasida bo'lmaganligi uchun tadqiqotchi shu qisqa izoh bilan chegaralangan. Biroq tadqiqot natijasi bilan tanishayotgan odam uchun bu izoh yetarli bo'lmaydi va noto'g'ri tushunchaga ega bo'lish holati yuzaga keladi. Bu o'rinda "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan iqtibos olish o'rinli bo'lar edi.

Tilshunos olim X.Doniyorov milliy til tushunchasi doirasiga mahalliy dialektlar, shevalar va hatto sotsial jargonlar, argolar, vulgar so'zlar ham kirishi haqida aytib o'tadi.

Darhaqiqat, milliy til chegaralangan leksik birliklarni ham qamrab olish xususiyatiga ega bo'lib, tadqiqot obyektimiz – jargonlar ham milliy tilning ajralmas bir bo'lagidir.

"Jargonlar xalq ommasiga emas, balki ba'zi bir ijtimoiy qatlamlarga, ayrim guruh kishilariga (o'g'ri, savdogar, qassob kabi) xizmat qiladi", - deya ta'kidlaydi Nazar Rajabov.

Albatta, jargonlar chegaralangan doiradagina ishlatiladi va shuning uchun ham biz uni chegaralangan leksik birliklar qatorida tadqiq etamiz. Tadqiqot obyektimiz ham ma'lum ijtimoiy guruhlar nutqida faol bo'lgan so'z va birikmalardir. Keyingi yillarda jargonlardan foydalanuvchi ijtimoiy guruhlar soni ortib borayotganligi sir emas. Biroq jargonlarning sotsiolingvistik tadqiqi amalga oshirilmaganligi, aniq ma'lumotlarning mavjud emasligi keyingi tadqiqotlarda murakkabliklar keltirib chiqaradi.

Tilshunos olim S.Karimov tilimizda biror ijtimoiy guruhga yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o'g'rilar, bezorilar, shofyorlar, militsionerlar singarilarning o'ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan yasama tili mavjudligini keltirib o'tadi.

Jargon – (fransuzcha) biror ijtimoiy guruhning o'ziga xos va o'zigagina tushunarli bo'lgan, boshqalar tushunmaydigan yasama tili. Bu o'rinda mualliflar jargonlarga nisbatan "yasama til" tushunchasini qo'llayapti. Ko'rinadiki, jargon leksik sathdan chiqib, mustaqil til darajasiga yeta olgan birlik sifatida ta'riflanayapti. Leksik birliklar til darajasiga ko'tarila olishi uchun o'zining xususiy fonetik, morfemik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari mavjud mukammal tizimga ega bo'lmog'i lozim. Biroq jargonlar o'zining xususiy yasalish uslubiga ega emas. Yuqoridagi ma'lumotga asoslangan holda aytish mumkinki, jargonlarning boshqa chegaralangan leksik birliklardan farqi ham aynan o'ziga xos hosil bo'lish (yasalish emas!) tizimi va o'ziga xos maqsadlarni ifodalashidir.



Jargon va jargonizm atamaları ayni bir ma'noni anglatadi. Jargonlarning boshqa chegaralangan birliklardan farqli va o'ziga xos jihati ijtimoiy guruh vakillarining boshqalar tushunmaydigan so'zlar asosida nutq tuzishi uchun imkon yaratishi, mazmunan yangi ma'no kasb etish xususiyatiga ega bo'lishidir. Ular til egalarining barchasi tomonidan emas, ayrim guruhlar tomonidan yaratiladi va shu guruhlar uchungina tushunarlik kasb etadi. Shunga ko'ra jargonlarga ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so'z va iboralar deb ta'riflash holatlari ham mavjud. Ko'rinadiki, jargonlar umumxalq tiliga taalluqli bo'lgan ayrim guruh va to'dalar (tekinxo'rlar, bezorilar, firibgarlar, tovlamachilar, otarchilar, ichuvchilar, giyohvandlar) nutqida qo'llanadigan va umumxalq tushunmaydigan so'zlardir.

Xususiyatiga ko'ra M.Axmedova jargonlarni argo kabi quyi tabaqa vakillari uchun emas, umumjamiyat uchun, "yuqori tabaqa" vakillari uchun xos bo'lgan maxsus til deb ataydi.

Jargonlar ijtimoiy guruh vakillari nutqida faol ishlatiladigan birliklar. Mas., novcha (aroq), qizili (konyak) – ichuvchilar nutqiga xos; dum (topshirilmagan imtihon), tanka (imtihonda yordam beruvchi shaxs) – studentlar nutqiga xos; loy (pul) – otarchilar nutqiga; soqqa (pul), ko'kat (AQSh dollari) – savdogarlar nutqiga xos jargonlardir.

Jargonlarga leksema sifatida tavsif berish uni nutqiy birlikdan, lisoniy birlik safiga kirgizadi. Ayniqsa, tabaqalanishni ifodalovchi jargonlarni lisoniy sathga ham o'tib, ko'proq so'zlashuv nutqida faollashganligi kuzatiladi. Masalan, piri komil, oqsuyak, oliy hazratlari, padari buzrukvor kabi jargon sifatida vujudga kelgan leksemalar keyinchalik faollashib, til sathiga ko'chgan.

Jargonlar antroposentrik tilshunoslikka bo'lgan davrda faqat leksikologiyaning o'rganish obyekti bo'lib kelgan. Antroposentrik tilshunoslikda esa jargonlarga sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yondashiladi. Endi u mukammal o'rganish va tadqiq etishni talab qiladi. Sinxron va diaxron jihatdan jargonlarni o'rganish uning tub mohiyatini, ishlatilish sabablarini aniqlashga xizmat qiladi.

Ingliz tili stilistikasi bilan qiziqqan L.T.Boboxonova jargon deganda tilda mavjud bo'lgan hamda yangi ma'no olgan so'zlar tushunilishini aytadi. Chunonchi, sportchilar, musiqachilar, harbiylar, o'g'rilar jargonlari mavjud. Jargonlar faqat o'sha sohalardagi kishilargagina tushunarli. Lekin keng omma o'rtasida og'zaki nutqda ishlatiladigan jargonlar ham bor: shapkasi (yashirincha qo'yilgan ustama narx), so'lkavoy (10 so'm), qurug'i (nasha), latta (yigit), loy, soqqa (pul), dor (go'zal), xit, deg'o (begona), qaychi (revizor), suv qilmoq, (molni birovga oshirmoq, sotmoq), cho'tal (qimor o'yinlarida yutgan pul).



Jargon leksikasini milliy tilni to'sib qo'yuvchi yoki "buzuvchi" vosita, salbiy hodisa deb hisoblash noto'g'ri. Jargon – bu so'zlashuv nutqining uyg'un mavjudligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barqarorlashtiruvchi birlikdir. Ayniqsa, til yangiliklari nuqtayi nazaridan jamiyat hayotidagi o'zgarishlarga sezgir bo'lgan va muloqot kodlarini doimiy ravishda yangilashga moyil bo'lgan yoshlar jargoni (sleng) eng muhim jargon turi hisoblanadi. Bu o'ziga xos jarayon bo'lib, tilning imkoniyatlari va tendensiyalariga nisbatan qo'llaniladi, uni normallashtiradi va tartibga solib turadi.

O'zbek tilida jargonlarni psixolingvistik aspektda o'rgangan M.Axmedova noadabiy so'zlar haqida fikr yuritar ekan, bunday lug'aviy vositalarni til lug'at boyligining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini e'tirof etadi. Yoshlar jargoni haqida olim yoshlarning kundalik muloqot vositasi sifatida ularning rivojlanish darajasini, qiziqishlarini, didlari va ehtiyojlarini namoyon etishini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotda argo, jargon va sleng atamaları, ularga tilshunoslar tomonidan berilgan ta'riflar o'rganilgan holda izohlar berilgan. Tadqiqotchi jargon va argo so'zlarining qo'llanilishi jihatidan qadimiy ekanligini izohlar ekan, tilshunoslikda ular nutqiy kamchiliklar sifatida qaralganligi, nutqiy faoliyatda bu vositalardan foydalanish ma'naviy qashshoqlikni ko'rsatadi deb qaralganiga alohida e'tibor qaratar ekan, jargon so'zlarni ishlatish ma'lum darajada ongli bo'lib, nutqning stilistik tuzilishiga mos kelishini, argo maxsus maxfiy ma'noli so'z bo'lib, ko'proq salbiy, hissiy-emotsional bo'yoqqa egaligini alohida qayd etadi. Jargon va argolarning muayyan xususiyatlarga egaligi ularning nutqiy jarayonda, xususan, badiiy matnlarda ulardan uslubiy bo'yoq sifatida foydalanish imkonini yaratadi. Shunga ko'ra, noadabiy qatlam leksik birliklarining bu turlarining ham nutq jarayonida o'z o'rnini bo'lib, ularning xususiyatlarini, boshqa lug'aviy birliklardan farqli jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi jargon so'zlarni psixolingvistik jihatdan tahlil qilar ekan, jargonlarda ijtimoiy davr, qatlam, guruh vakillari aks etishini to'g'ri talqin etadi va jargonlar insonning jinsi, ijtimoiy holati, moddiy ta'minoti, salohiyati, xulq-atvori, intizomi, zehni, mehnat faoliyati, tajribasi, xarakter va yosh xususiyatlarini ham ifoda etishini ko'rsatib o'tadi. Tadqiqotchi nutqiy faoliyatda turli so'zlarning paydo bo'lishi, jumladan, jargonlarning vujudga kelishi inson faoliyati, muomala munosabati takomillashuvini muhim omil sifatida ko'rsatadi. Ko'rinadiki, turli lug'aviy birliklarning nutqda paydo bo'lishi, muayyan ehtiyoj, nutqiy faoliyatning kengayishi bilan ham bog'liq. Shunday ekan, tilda mavjud bo'lgan so'z kimningdir nutqiy ehtiyojini qondirish vazifasini bajaradi va nutqiy jarayonda o'z qimmatiga ega bo'ladi.

Milliy tilning nutqqa xoslangan jarayonidagi shakli bo'lgan jargonlar o'zining leksik, semantik, struktur xususiyatlari, jamiyatning ma'lum bir ijtimoiy va



professional sohalari bilan chegaralanganligi, o'zining mustaqil fonetik, morfemik, morfologik tizimiga ega emasligi uchun ham mustaqil til birligi darajasiga ko'tarila olmaydi. Biroq, so'zlashuv nutqining muhim elementlaridan bo'lib qolaveradi.

Jargonlar jamiyatning odatiy tilidan ajralib chiqish va shu bilan birga u bilan aloqani butunlay yo'qotmaslik o'rtasidagi "muvozanat" ni doimiy ushlab turishga intiladi. Jargonda bu hodisa bir tomondan, umumiy tushunarli lingvistik elementlarning mavjudligida, boshqa tomondan esa, faqat unga xos bo'lgan ma'noviy o'zgachalik, balki odatiy so'zlar bilan bir qatorda so'z hosil qilish usullarida ham namoyon bo'ladi. Semantik so'z hosil qilinishi va fikrni uzatish usullari, ba'zan mutlaqo mantiqsiz ko'rinadi. Biroq, jargonning birlamchi vazifasi ham boshqa shaxslar uchun tushunarsiz bo'lishlikni ta'minlashdir.

Jargonning ikki tomonlama tabiati – o'z eksklyuzivligi va milliy ildizlardan uzilmagan holda hosil bo'lishidir. Ijtimoiy guruhlar sonining ortib borishi natijasida jargondan foydalanuvchilar doirasi ham kengayib boradi. Bu ma'lum bir "milliy jargon" mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda tilshunoslar, odatda, ma'lum bir kasbdagi jargonlar, talabalar, maktab o'quvchilari, umuman yoshlar jargonlari borligini ta'kidlaydilar.

Jargonlar juda beqaror, ular nisbatan tez o'zgaradi va ma'lum vaqt, avlod belgisi bo'lib, turli joylarda bir xil toifadagi odamlarning jargonlari har xil bo'lishi mumkin. Jargonlarda ma'noviy ifoda mavjud, shuning uchun ular ba'zan badiiy adabiyotda ijtimoiy guruh vakilining tasvirini yaratish vositasi sifatida ishlatiladi.

Olimlar, asosan, jargonning ikki turini ajratadilar – umumiy va maxsus. Biroq hozirda maxsus jargonlarni ajratishda bir xillik yo'q. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, maxsus jargonlar argo, kent, qofiyali jargon, ijtimoiy jargon va professional nutqlarni o'z ichiga oladi.

L.P.Krisin jargonning uch, ya'ni professional, guruhli va yoshlar turini ajratadi.

Ko'pchilik tilshunoslar maxsus jargon, professional jargon, professional nutqqa oid leksika va jinoyat olami jargonni (argosi) ning o'ziga xos leksikasi va frazeologiyasi mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Tilshunoslikda jargon yoki ijtimoiy chegaralangan leksik birliklarning paydo bo'lishi haqida umumiy fikrlar mavjud emas. Turli qarashlar va turli sabablar mavjud.

Aytish mumkinki, jargon – jonli muloqot jarayonida ijtimoiy chegaralanganlikni ko'rsatuvchi, ma'lum sotsial guruh vakillari uchungina tushunarli bo'lib, o'zga guruh vakillari uchun boshqa bir ma'no yoki mavhum ma'no anglatuvchi nutqiy birlik bo'lib, o'zining maxsus fonetik, morfemik va yasalish tizimiga ega bo'lmagan jargonlar adabiy tilda mavjud bo'lgan so'z va so'z birikmalarini maxsus ma'no anglatishga



xoslash yo'li bilan hosil qilinadi. Rus va ingliz tillaridagi jargon bilan bog'liq tadqiqotlarda jargon birliklarning turli yasash usullari o'rganilgan. Biroq, o'zbek tili doirasida jargon deb qaralgan birliklar orasida yasash xususiyatiga ega jargonlarni uchratmadik.

Jargonlarni diaxron va sinxron tarzda o'rganish uning mohiyatini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Jargonlar hosil bo'lish va ishlatilishining ijtimoiy sabablari lingvistik nuqtayi nazardan chuqur o'rganilishni talab qiladi.

Bu birlikning hosil bo'lish usuli ko'pchilik til birliklari kabi ma'no ko'chishi hosilasi bo'lsa-da, ijtimoiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishga mo'ljallanganligi bilan farqlanadi.

So'zlashuv nutqi mahsuli bo'lgan jargonlarni to'plash biroz mushkul vazifa bo'lib, ijtimoiy guruhlarning har biri ishlatadigan jargonlarni yig'ib tahlil qilish tilning sotsial xoslanishini o'rganish yo'lidagi muhim qadamdir.


Jargonlar faqat undan foydalanuvchilarga muhim vosita bo'lib, ma'lum vaziyatlarga xizmat qilish uchun xoslangan, tilning leksik tarkibiga ta'sir qilmaydi, balki ijtimoiy guruh uchun muhim bo'lgan vaziyatlarda foydalanishga tilning semantik sathidan ko'mak oluvchi til birligidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Guiraud P.L. Etimologie. –Paris. 1964. –P. 153.
2. Vasilevich E.M. Dictionary of Sociolinguistic Terms [Reference Edition] / ed. Vasilevich E.M. – M.: Institute of Linguistics of the Russian Academy of Sciences. 2006. –P. 312.
3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: sheba.sqb.ru. – Борис Карлов. Авторская аудиокнига mp3.
4. Тимофеев Л.П., Венгров Н.В. Краткий словарь литературоведических терминов. –Москва, 1958. –С. 48.
5. Найман Е.А. Социоллингвистика. КУРС ЛЕКЦИЙ. –Томск, 2004. – С. 141.
6. Сленг сөздерін аударудағы қиындықтар. // <http://www.bauka.kz>. 130.
7. Болғанбаев Ә. Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы. – Алматы: Ғылым, 1988. –Б. 130.
8. [https://spbtt.ru/uz/zhargonizmy -v-nashei-rechi-zhargonizmy-v-nashei-rechi-issledovatelskaya/](https://spbtt.ru/uz/zhargonizmy-v-nashei-rechi-zhargonizmy-v-nashei-rechi-issledovatelskaya/)
9. Ахмедова М.Х. Ўзбек тили жаргон лексикасининг психоллингвистик аспектлари: Фил.фан.док.(DSc) дисс. автореферати. –Тошкент, 2022. –Б. 13.







10. Насруллоева Н. Компьютер ва интернет жаргонлари мураккаб лисоний ҳодиса сифатида. // Хорижий филология №1, 2020 йил. –Б. 144-148.

